

NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARINI RAG'BATLANTIRISHGA QARATILGAN LOYIHALARNING NATIJADORLIK VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

Rapiyev Alisher Parda o'g'li

*Raqamli texnologiyalar vazirligi, "Raqamli ta'limni rivojlantirish markazi" DM
bo'lim boshlig'i*

a.rapiyev@digital.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarini, xususan IT yo'nalishidagi o'quv markazlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalarning natijadorlik va samaradorlik ko'rsatkichlari hamda xalqaro tajriba asosida taqqoslov tahlillari keltirilgan. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va Prezident farmonlari asosida amalga oshirilayotgan rag'batlantirish dasturlari natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, Turkiya, Hindiston va Koreya tajribasi asosida IT-ta'lim markazlarini moliyaviy va soliq tizimi jihatdan rag'batlantirish mexanizmlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *IT-ta'lim, nodavlat o'quv markazlari, raqamli iqtisodiyot, samaradorlik, xalqaro tajriba, IT eksport, davlat siyosati.*

ПОКАЗАТЕЛИ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОЕКТОВ ПО СТИМУЛИРОВАНИЮ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Рапиев Алишер Парда угли

*Начальник отдела Государственного учреждения «Центр развития цифрового
образования» при Министерстве цифровых технологий Республики
Узбекистан*

a.rapiyev@digital.uz

Аннотация: В статье анализируются показатели результативности и эффективности проектов, направленных на поддержку негосударственных образовательных учреждений, в частности IT-центров. Кроме того, рассматривается международный опыт Турции, Индии и Южной Кореи по финансовому стимулированию и налогообложению, развитию экспортных услуг и устойчивых моделей подготовки кадров в сфере информационных технологий.

Ключевые слова: *IT-образование, негосударственные учебные центры, эффективность, международный опыт, цифровая экономика.*

INDICATORS OF PRODUCTIVENESS AND EFFECTIVENESS OF PROJECTS AIMING TO PROMOTE NON-STATE EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Rapiyev Alisher Parda ugli

*Head of Department, “Center for the development of digital education” under the
Ministry of digital technologies of the Republic of Uzbekistan*

a.rapiyev@digital.uz

Abstract: This article analyzes the efficiency indicators of projects aimed at supporting non-governmental educational institutions in Uzbekistan, particularly private IT academies. Based on the “Digital Uzbekistan – 2030” strategy, the study also includes a comparative analysis of international experiences from Turkey, India, and South Korea, focusing on financial and tax incentives, export promotion mechanisms, and sustainable training models for the IT sector.


Keywords: *IT education, private learning centers, digital economy, efficiency, incentives, international experience.*

KIRISH

XXI asrda raqamli iqtisodiyot global raqobatning asosiy omiliga aylandi. O‘zbekiston ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (PF–6079,05.10.2020) asosida axborot texnologiyalarini joriy etish, IT xizmatlarini eksportga yo‘naltirish va inson kapitalini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda.

Tahliliy ma‘lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, 2023-yilda IT xizmatlar eksporti hajmi 344 mln. AQSh dollari, 2024-yilda esa 900 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2030-yilgacha IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksportini hajmini 5 mlrd. dollarga yetkazish hamda IT sohasida 300 ming nafar malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda har yili 15 ming nafar eng iqtidorli yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash vazifalari belgilangan.

Ushbu ko‘rsatkichlarga chiqish uchun mamlakatimiz hududida faoliyat yuritayotgan 600 dan ortiq nodavlat IT-ta‘lim markazlarini kadrlar tayyorlashdagi, malakali mutaxassislarni bilim va ko‘nikmalarini oshirishdagi o‘rni judayam muhim hisoblanadi. Hozirda mazkur ta‘lim tashkilotlarida 10 000 nafarga yaqin o‘quvchi tahsil olmoqda, 67 319 nafar yoshlar esa bitirgan, shularning 31 065 nafari ish bilan ta‘minlangan, 1 384 nafari esa IT-xizmatlar eksportiga yo‘naltirilgan kompaniyalarda faoliyat yuritmoqda.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi amalga oshirayotgan IT xizmatlar eksporti hajmi ko‘rsatkichlari¹

Shu o‘rinda, mamlakatimiz oldiga qo‘yilgan maqsadlarga, IT xizmatlar eksporti hajmidagi samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish maqsadida davlat tashkilotlari tomonidan xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, moddiy-texnik rag‘batlantirish, soliq imtiyozlari taqdim etish va boshqa jabhalarda uzviy ko‘mak berib kelinmoqda. Mazkur qo‘llab-quvvatlov mexanizmlariga “Zero risk” dasturini, “IT talents”, “Maqsadli qarz”, “Xalqaro IT sertifikatlar kompensatsiyasi” va boshqa loyihalarni misol qilib keltirish mumkin va ushbu maqolada aynan shu loyihalar va ularning samaradorlik miqdorlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shuningdek, so‘nggi yillarda ta‘lim sohasida, xususan nodavlat ta‘lim muassasalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalasida xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlar va tadqiqotchilar tomonidan bir qator tahliliy ishlar amalga oshirilgan.

Xalqaro amaliyot (OECD, UNESCO, UNDP) shuni ko‘rsatadiki, **nodavlat ta‘lim muassasalari** raqamli iqtisodiyot uchun zarur kadrlar tayyorlashda asosiy drayver bo‘lib xizmat qiladi.

¹ Muallif ishlanmasi

1. Jahon bankining “Public Policies Toward Private Education” (E. James, 1987) nomli klassik hisobotida davlatning xususiy ta’lim sektorini moliyalashtirishdagi roli, subsidiya va grantlar orqali ta’lim xizmatlarining qamrovini kengaytirish zarurligi asoslab berilgan. Ushbu yondashuv xususiy ta’limni ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim bo‘g‘in sifatida talqin qiladi.

2. OECD (2023) tomonidan tayyorlangan “Public and Private Stakeholder Funding for Education” tahliliy hisobotida davlat va nodavlat sektor o‘rtasidagi moliyaviy hamkorlik modellarining afzalliklari, ta’lim tizimida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, soliq imtiyozlari va moliyaviy rag‘batlantirish choralari takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

3. Zancajo, A. (2022) o‘zining “The Instrumentation of Public Subsidies for Private Schools”² nomli ilmiy maqolasida xususiy ta’lim muassasalariga ajratiladigan subsidiya tizimlarining samaradorlik darajasini baholaydi hamda shaffoflik, natijaviylik va ijtimoiy tenglik tamoyillarini moliyaviy siyosatga integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

4. UNICEF va Jahon bankining O‘zbekiston bo‘yicha “Partnership Compact for Education Reform” (2023) hisobotida esa mamlakatda nodavlat ta’lim subyektlarini rivojlantirish uchun grantlar, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish zarurligi ta’kidlangan. Hujjatda davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar natijadorlik mezonlariga asoslanishi, ta’lim sifati va barqarorlik ko‘rsatkichlari bilan bog‘lanishi lozimligi qayd etilgan.

5. UNESCOning “Financing Education 2030” (2022) hisobotida esa, ta’lim tizimini barqaror moliyalashtirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, innovatsion moliyaviy vositalarni (masalan, “education bonds”, “impact investment”) joriy etish dolzarb deb baholanadi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda nodavlat o‘quv markazlarini grantlar orqali qo‘llab-quvvatlash ta’lim sifati va texnologik yangiliklarni tez joriy etishga imkon yaratishi ta’kidlanadi.

6. World Economic Forum (2024) tomonidan ta’lim sektoridagi investitsion barqarorlikka bag‘ishlangan tahliliy materialda esa, xususiy va davlat sherikliklari (PPP) orqali ta’lim infratuzilmasiga yo‘naltirilgan moliyaviy oqimlar o‘sishi ta’kidlangan. Mualliflar fikricha, nodavlat o‘quv markazlari IT va raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha inson kapitalini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi, shu sababli ularni soliq yengilliklari va subsidiyalar bilan rag‘batlantirish global tendensiyadir.

7. Asian Development Bank (2022)ning “Private Sector Participation in Education in Central Asia” hisobotida Markaziy Osiyo mamlakatlarida xususiy sektorning ta’limdagi ishtiroki iqtisodiy diversifikatsiya va ish o‘rinlari yaratish

2

<https://eric.ed.gov/?q=source%3A%22European+Educational+Research+Journal%22&ff1=subElementary+Secondary+Education&id=EJ1323683>

jarayonini tezlashtirishi qayd etilgan. Unda nodavlat ta'lim markazlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun davlat kafolatlari, innovatsion grantlar va startaplar uchun fondlar tashkil etish taklifi bildirilgan.

8. Davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeliga oid World Bank Education Global Practice (2021) hisobotida ham xususiy ta'limni moliyalashtirishda davlat kafolatlari, natijaga asoslangan grantlar hamda to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar eng samarali vositalardan biri sifatida e'tirof etilgan.

9. Ilmiy manbalarda (Hillson, 2024; Richards, 2024; Smith, 2024) ta'lim loyihalari samaradorligi, resurslarni oqilona taqsimlash va xususiy sektor ishtirokining muhimligini ta'kidlaydi.

Masalan, Hindistonda "Digital Skills India" dasturi orqali 2023-yilda 5 milliondan ortiq yoshlar axborot texnologiyalari yo'nalishida bepul malaka oshirgan.

10. Janubiy Koreya Respublikasida esa "K-Digital Training" dasturi natijasida 2024-yilda 120 ming mutaxassis raqamli sertifikat olgan. Bu tajriba, O'zbekistondagi "IT-Talents", "Bilgi.uz" va "Xalqaro IT sertifikatlari kompensatsiyasi" dasturlarining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

11. Shuningdek, Janubiy Koreya Respublikasining "KOICA" tashkiloti bilan 2025-yilda davlat xizmatchilarini malakasini oshirish bo'yicha shartnoma imzolangan bo'lib, mazkur shartnomaga muvofiq har yili bir marotaba yuqori turuvchi tashkilotlardagi mutaxassislarni raqamli transformatsiya, elektron hukumat va raqamli ta'lim sohalarida malakasini oshirish tartibi yo'lga qoyildi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda mahalliy va xorijiy olimlar, tashkilotlar ishlari tahlil qilingan hamda amaliy bosqichda xususiy ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, statistik kuzatish, solishtirma va taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash, jadval va grafik usullari qo'llanilgan. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida nodavlat ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish modellarini shakllantirish uchun muhim metodologik asos bo'la oladi va tahlillar dolzarbligini ko'rsatib beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalarda nodavlat ta'lim sektorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar bo'yicha natijalar tahlili:

1. Soliq va moliyaviy rag'batlar

BMT hisobotlarida ("*Towards coherent policy frameworks*", 2023) qayd etilishicha, ko'plab davlatlar nodavlat ta'lim sektorini quyidagicha qo'llab-quvvatlaydi:

- IT markazlar uchun kompyuter va dasturiy ta'minot xarajatlariga 20–40% amortizatsiya imtiyozlari;

- Import uskunalari uchun bojxona va QQSdan ozod etish;
- O'quv binolari uchun soliq chegirmalari.

Turkiyada esa eksport yo'naltirilgan ta'lim xizmatlariga 60%gacha davlat moliyaviy kompensatsiyasi taqdim etiladi.

2. Eksport va xalqaro integratsiya

Turkiya, Malayziya va BAA tajribasi shuni ko'rsatadiki, nodavlat ta'lim muassasalarini xalqaro bozorda faol ishtirokchi qilish uchun davlat:

- Xalqaro ofislar ochish xarajatlarining 60%igacha moliyalashtiradi;
- Xorijiy talabalarni jalb qilish uchun marketing grantlari ajratadi.

3. Sanoat bilan integratsiyalashgan ta'lim modeli

Koreyada "K-Digital Training" dasturi doirasida har bir nodavlat markaz sanoat bilan hamkorlikda ishlaydi:

- 70% o'quv dasturlari real IT kompaniyalar loyihalari asosida;
- Bitiruvchilarning 85% o'sha kompaniyalarda ish bilan ta'minlanadi.

Bu model O'zbekistonda "IT Park Residents" doirasida joriy etilayotgan turli xil imtiyozlar bilan o'xshash.

Shu o'rinda respublikamizda nodavlat IT ta'lim sektorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalar bo'yicha tahliliy ma'lumotlarni keltirib o'tsak:

1. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldagi 589-son qaroriga muvofiq, IT-parkning ta'lim rezidentlariga quyidagi imtiyozlar berilgan:

- 7,5% daromad solig'i; 0% korporativ soliqlar; 0% yagona ijtimoiy to'lov; o'z ehtiyojlari uchun tovarlarni olib kirishda bojxona to'lovlari ozod etilgan.

Ta'lim rezidentlar 419 ta bo'lib, ularda 67 ming nafar yoshlar o'quv kurslarini bitirib, 32 ming nafari ish bilan ta'minlangan, 1,5 ming nafardan ziyodi AT eksport xizmatlarida faoliyat yuritib kelmoqda.

2. "IT-talents" dasturi:

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi 86-son qaroriga muvofiq, yoshlarni AT-xizmatlar eksporti sohasida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasblarga tayyorlovchi nodavlat ta'lim tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "IT-Talents" dasturi tasdiqlangan³.

Mazkur dastur AT-ta'lim markazlariga har bir bitiruvchisi AT-xizmatlarni eksport qiluvchi kompaniyaga ishga joylashganda bir martalik subsidiya ajratish belgilangan.

Dastur doirasida bugungi kunga qadar jami 234 ta ariza kelib tushgan bo'lib, shundan 36 ta ariza ma'qullanib, nodavlat ta'lim tashkilotlarga jami 802,5 mln. so'm miqdorida subsidiya ajratilgan.

3. "Xalqaro IT-sertifikatlar kompensatsiyasi" loyihasi:


³ https://t.me/digitaledu_uz/884

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-fevraldagi 95-son qaroriga muvofiq, 2024-yil 1-martdan boshlab xalqaro IT-sertifikatlarga ega yoshlarning o‘qish hamda ushbu sertifikatlarni olish xarajatlarining 60 foizgacha bo‘lgan qismini hamda ingliz tilini bilish bo‘yicha B2 va undan yuqori darajadagi sertifikatga ega bo‘lgan yoshlarning professional darajadagi xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarini to‘liq qoplab berish tartibi joriy etilgan.

Mazkur qaroriga muvofiq, talab yuqori bo‘lgan xalqaro AT-sertifikatlar ro‘yxati shakllantirilib, xalqaro AT-sertifikatlar va ushbu sertifikatlarni taqdim qiluvchi kompaniyalar ro‘yxati 329 taga yetkazilgan.⁴

Bugungi kunda 4 514 nafar yoshlarning xalqaro AT-sertifikatini olish uchun jami 14 831 mln. so‘mdan ortiq xarajatlari qoplab berilmoqda, jumladan:

- 2023-yilda 922 nafar yoshlarning 1 584 mln. so‘m;
- 2024-yilda 1 001 nafar yoshlarning 3 798 mln. so‘m;
- 2025-yilda 2 180 nafar yoshlarning 9 010 mln. so‘m miqdoridagi xalqaro AT-sertifikat uchun sarf qilgan xarajatlari qoplab berilmoqda⁵.



2-rasm. “Xalqaro IT-sertifikatlar kompensatsiyasi” loyihasining yillar (2022-2025) kesimidagi ko‘rsatkichlari⁶

4. “Bilgi.uz” va “Maqsadli qarz” loyihalari:

“IT-bilimlarini rivojlantirish markazi” MChJ Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi “Axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 556-son qarori asosida tashkil etilgan.

⁴ <https://it-istedod.uz/>

⁵ https://t.me/digitaledu_uz/1676

⁶ Muallif ishlanmasi

Mazkur qarorga muvofiq, axborot texnologiyalari sohasida sifatli va hamyonbop ta'limni rivojlantirishda ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida yaratilgan;

AKT sohasida talab yuqori bo'lgan kasblarga ega bo'lishni xohlovchi O'zbekiston yoshlarini qo'llab-quvvatlash, to'lov-kontrakt uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, kelgusida bandligini ta'minlashga ko'maklashish maqsad qilingan.

Bugungi kunda 24 ta nodavlat ta'lim tashkilotlariga 77 159 mln. so'm miqdorida maqsadli qarz ajratilgan hamda 117 ta o'quv muassasalarining 2 481 nafar o'quvchilarining AKT sohasida bilim ko'nikmalarini oshirish maqsadida "Bilgi.uz" orqali o'quv kurslar uchun jami 24 340 mln. so'm mablag'lar ajratilgan.

5. Qishloq hududlarida xorijiy tillarni o'qitish faoliyatini tashkil etish uchun nodavlat ta'lim tashkilotlariga subsidiya ajratish dasturi:

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-sentyabrdagi 513-son qaroriga muvofiq, 2022-yil 1-oktabrdan boshlab qishloq hududlarida xorijiy tillarni o'qitish faoliyatini tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga 50 msln. So'mgacha mahalliy budget mablag'lari hisobidan bir martalik subsidiya ajratish belgilangan.

1-jadval

Nodavlat ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlarining 2025-yilning III choragidagi ko'rsatkichlari⁷

| T/R | Dastur nomi | Ishtirokchilar | Ajratilgan mablag' (mlrd so'm) | Ish bilan ta'minlanganlar | Asosiy natija |
|-----|--|----------------|--------------------------------|---------------------------|---|
| 1. | "IT-Talents" | 67 319 | 0.8 | 31 065 | IT eksport hajmi oshiriladi |
| 2. | Xalqaro IT sertifikatlar kompensatsiyasi | 4 514 | 14.8 | 1710 | Sertifikatlangan mutaxassislar soni ko'payadi |
| 3. | "Maqsadli qarz" loyihasi | 24 | 77.1 | — | O'quv markazlar ochishni rag'batlantiradi |
| 4. | "Zero Risk" dasturi | 102 | 5.6 | — | IT kompaniyalar soni ortadi |

XULOSA

O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida nodavlat ta'lim muassasalari muhim strategik o'rin egallamoqda. Ayniqsa, IT va sun'iy intellekt (AI) sohasida malakali kadrlar tayyorlash, yoshlarni xalqaro mehnat bozoriga tayyorlash hamda IT eksport salohiyatini oshirishda ushbu markazlarning hissasi beqiyosdir.

⁷ Muallif ishlanmasi

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan “Bir million dasturchi”, “IT Talents”, “ToT – Training of Trainers”, va “Xalqaro AT-sertifikatlar kompensatsiyasi” loyihalari natijasida minglab yoshlar xalqaro sertifikatlariga ega bo‘lib, ish bilan ta‘minlandi.

Shu bilan birga, “Uzbekcoders.uz” platformasi orqali 2025-yilda 571 ming nafar yosh o‘qitilib, 378 ming nafari muvaffaqiyatli yakunlab xalqaro sertifikat oldi. Ulardan 175 nafari sun‘iy intellekt va ma‘lumotlar tahlili yo‘nalishida sertifikatga ega bo‘lgan. Bunday natijalar davlat va xususiy sektor hamkorligi kuchaytirilayotganini ko‘rsatadi.

Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, nodavlat ta‘lim markazlarining moliyaviy barqarorligi hamon cheklangan: ko‘pchilik markazlar o‘zini o‘zi moliyalashtirish modeli asosida faoliyat yuritmoqda, bu esa infratuzilma, o‘quv jihozlari va malakali o‘qituvchilarni jalb etishda qiyinchilik tug‘diradi. Shuningdek, litsenziyalash tartibining murakkabligi va soliq yukining yuqoriligi ayrim markazlarni “yashirin iqtisodiyot”ga kirishga majbur qilmoqda.

Bu muammolarni hal etish uchun xalqaro tajribalar (Jahon banki, OECD, UNESCO, ADB) asosida quyidagi tahliliy yo‘nalishlar tavsiya etiladi:

Moliyaviy barqarorlikni oshirish – Nodavlat o‘quv markazlariga imtiyozli kreditlar, davlat kafolatlari va subsidiya mexanizmlarini kengaytirish. OECD va Jahon banki tajribasiga ko‘ra, natijaga asoslangan moliyaviy yordam (results-based financing) ta‘lim sifati va samaradorligini oshiradi.

Davlat-xususiy sheriklik (PPP) tizimini rivojlantirish – Universitetlar va nodavlat markazlar o‘rtasida infratuzilma va o‘quv platformalaridan birgalikda foydalanish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish.

Huquqiy va soliq imtiyozlari – yangi ro‘yxatdan o‘tgan nodavlat o‘quv markazlari uchun 2 yilgacha “soliq ta‘tili” joriy etish, sug‘urta badallarini kamaytirish va ijaraviy xarajatlarni kompensatsiya qilish.

Grant va subsidiyalar tizimini takomillashtirish – Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun bepul kurslar tashkil etayotgan markazlarni davlat grantlari bilan qo‘llab-quvvatlash.

Kadrlar salohiyatini oshirish – “ToT” dasturlarini kengaytirish, o‘qituvchilarni xalqaro sertifikatlariga tayyorlash, malaka oshirish xarajatlarini qisman qoplash.

Shuningdek, ta‘limni moliyalashtirishda xalqaro institutlar (UNICEF, ADB, UNESCO) tomonidan tavsiya etilgan natijaviylikka asoslangan moliyaviy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv nodavlat sektorning shaffofligini oshirib, davlat byudjeti mablag‘larining samarali taqsimlanishini ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, nodavlat ta‘lim muassasalarini kompleks qo‘llab-quvvatlash siyosati O‘zbekistonni mintaqadagi ilg‘or raqamli ta‘lim markazlaridan biriga aylantiradi. Bu yo‘nalishda iqtisodiy, tashkiliy va normativ islohotlar uyg‘un amalga oshirilsa, mamlakat o‘zining “IT-Hub” konsepsiyasini to‘liq ro‘yobga

chiqaradi va global raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish imkoniga ega bo'ladi. Ushbu takliflar amalga oshirilsa, 2030-yilgacha O'zbekiston IT eksportining 25–30% qismini nodavlat sektor kadrlarining hissasi tashkil etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hillson, D. (2024). *Managing Risk in Projects*. Routledge;
2. Richards, M. (2024). *AI in Project Management*. Cambridge Press;
3. OECD (2023). *Digital Education Systems Overview*;
4. UNDP (2025). *Digital Economy Study of Uzbekistan*;
5. UNESCO (2024). *Private Education Incentives: Global Review*;
6. IT Park Uzbekistan (2024). *Annual Report on Digital Exports*;
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6079-son Farmoni (05.10.2020);
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–158-son Farmoni (11.09.2023);
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–51-son qarori (01.02.2024);
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 86-son qarori (12.02.2024);
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 95-son qarori (17.02.2024);
12. <https://lex.uz/uz/>
13. https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2022-05/Edu%20Sit%20An_UNICEF%202022_0.pdf
14. <https://www.weforum.org/>
15. <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/5671/file/Partnership%20Compact%20for%20Education%20reform.pdf>
16. <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/press-releases/government-uzbekistan-and-development-partners-commit-education-reforms-2023-2026>